

ABU ALI İBN SINO SALOMATLIK SIRLARI TIBBIY RISOLALAR

Izzatillayeva Dilshoda G'ayrat qizi

Buxoro davlat tibbiyot institutining Davolash yo‘nalishi 3 kurs talabasi

dilshodaizzatilloyeva@gmail.com

Annotasiya. Ushbu maqolada butun dunyoga mashhur tibbiyot dunyosiga katta hissa qo‘shib tanilgan ABU Abu Ali ibn Sino (to‘liq ismi: Abū ‘Alī al-Husayn ibn ‘Abd Allāh ibn Sīnā al-Balkhī; arabcha: — سينا بن عبد الله بن الحسين على أبو —) o‘rtalasiyolik buyuk qomusiy olim, tabib va faylasuf deb yuritilgan. 980-yilning 18-iyunida Buxoro yaqinidagi Afshona qishlog‘ida tug‘ilgan va 1037-yilning 16-avgustida Hamadonda vafot etgan. G‘arbda Avitsenna (ingl. Avicenna) nomi bilan mashhur. Ushbu maqolada İBN SİNO bizga yozib qoldirgan salomatlik sirlari va risolalari haqida yoritilib beriladi.

Kalit sôzlar: Risola, asar, tib, qonunlari, gigiyena. Qonun, falsafa, ishorat asari.

Kirish: ABU ALİ İBN SİNO butun Yevropaga mashhur tibbiy ilmidagi Salomatlik sirlari, “Tibbiyot fani qonuni” («Kitab al-Kanun fi-t-tibb») - ensiklopedik xarakterdagi asar bo‘lib, unda qadimgi davr mediklarining ko‘rsatmalari arab meditsinasining yutuqlari bilan o‘zaro qayta ishlangan. Ibn Sino asarlari 280 dan ortiqdir. Shulardan 40 dan ortig‘i tabobatga oid, 30 ga yaqini turli tabbiy fanlarga, 180 ta risolasi falsafa, mantiq, ruxshnoslik, geologiya, etika va ijtimoiy masalalarga, 3 risolasi musiqiy ilmga bagishlangan. Lekin bizga bu asarlarning 160 ga yaqini yetib kelgan. Asarlar orasidagi 18 jildli „Kitob uf-shifo“ asarini falsafa bilimlar qomusi desa bo‘ladi. U „Urjuza“ risolasi muallifi.

Asosiy qism

Salomatlik “Qonun”larida Ibn Sino kasalliklar allaqanday mayda mikroblar oqibatida paydo bo‘lishini ko‘rsatgan. U birinchi bo‘lib chechakning yuqumliligiga e’tibor qaratgan, vabo va o‘latning farqini aniqlagan, moxo‘v kasalligining boshqalardan farqini ko‘rsatib, unga izoh bergen va boshqa bir qator kasalliklarni o‘rganib chiqqan. “Tibbiyot fani qonuni”ning lotin tiliga o‘girilgan ko‘plab tarjimalari mavjud. “Qonun” besh qismdan iborat bo‘lib, ikkisi dori vositalari va dorivorlarga hamda ularning tayyorlanish ta’rifiga bag‘ishlangan. Kitobda keltirilgan 2600 dori vositalaridan 1400 tasining kelib chiqishi o‘simlik ko‘rinishidadir.

- “Dori vositalari” («Al-Adviyat al kalbiya») — Xamadonga birinchi borishi vaqtida yozgan. Mazkur asarda pnevma hosil bo‘lganda va namoyon bo‘lganda yurak faoliyati, xususan, yurak kasalligi va davosi haqida batafsil yoritib berilgan.
- “Xatolarni to‘g‘irlash va ogohlantirish orqali turli usullarda olib tashlash” («Daf’ al-mazorr al kulliya an al-abdon al insoniya bi-tadorik anvo’ xato an-tadbir»).
- “Sharobning foydasi va zarari haqida” («Siyosat al-badan va fazoil ash-sharob va manofi’ix va mazorix») — Ibn Sinoning eng qisqa risolasi.
- “Tabobat haqida doston” («Urdjusa fit-tib»).
- “Tomir urushi haqida risola” («Risolayi nabziya»).
- “Sayohatchilar uchun tadbirlar” («Fi tadbir al-musofirin»).



- “Shahvoni kuch haqida risola” («Risola fil-l-box») — kasallik, uni oldini olish va shahvat buzulishlarini davolash ifodalangan.
- “Sirkə-asal haqida risola” («Risola fi-s-sikandjubin») — turli tarkibga ega sirkə va asalni tayyorlash va kasallikkarda iste’moli ta’riflangan.
- “Sachratqi haqida risola” («Risola fil-xindabo»).
- “Qon olishda qon tomirlar” («Risola fil-uruk al-mafsuda»).
- «Risola-yi judiya» — quloq, oshqozon, tish kasallikkleri ta’rifi keltirilgan. Bundan tashqari, unda gigiyena muammolari keltirilgan.

Ibn sinoning bizgacha yetib kelgan tibbiy risolalari, "Tib qonunlaridan" tashqari, 31 taga yetadi bu tarkiban olimning saqlanib qolgan ijodining choragini tashkil etadi.

Risolalarni mazmuniga ko‘ra 3 guruhga ajratish mumkin.

1) Umumiy xususiyatga ega bôlgan asarlar, bularda quyidagilar yoritiladi .

a) Tibbiyotning deyarli barcha sohalari .

b) bu fanning barcha sohasi - sog‘likni saqlash va gigiyenaga nazm va nasrda yozilgan bir qator risolalari kiradi

Ibn Sino o‘z asarlarida jismoniy mashqlarining sog‘lomlashtiruvchi va davolovchi tajribadagi o‘rni va roli haqida yozadi. Jismoniy mashqlarga to‘xtovsiz, chuqur nafas olishga olib keluvchi erkin harakatlar, deya ta’rif bergen.

Agar inson mo‘tadil va o‘z vaqtida jismoniy mashqlar bilan shug‘ullansa va tartibga rioya qilsa, u davoga ham, dorilarga ham muhitoj bo‘lmaydi, deya tasdiqlagan. Mashqlarni to‘xtatar ekan, u so‘nadi. Jismoniy mashqlar mushaklarni, bo‘g‘imlarni, asabni mustahkam qiladi. Shuningdek, u mashqlarni bajarishda yoshni ham inobatga olishni maslahat bergen. Uqalash, sovuq va issiq suvda chiniqish kabi muolajalarda to‘xtalga Abu Ali ibn Sino o‘z umrini inson salomatligi me’yorini o‘rganishga bag‘ishladi, desak aslo mubolag‘a qilmagan bo‘lamiz. Uning asosiy tadqiqot ob’ekti, salomatlik va bemorlik me’yorlarini o‘rganish bo‘lgan. Ibn Sino nuqtai nazarida, sifat miqdordan ayrılgan emas. Xuddi shuningdek, sifat va miqdorning yagonaligi va yaxlitligi, bir-birini taqozo etishi, aslo ularning bir-biriga qo’shilib ketganini bildirmaydi. Ibn Sinoning yutug‘i shundaki, sifat va miqdor belgilarini farqlay oldi. Shu sababli ham, "Miqdor kasallikkleri"ni "sifat kasallikkleri"dan ajratib ko‘rsatdi.

"Miqdor kasallik"lari kattalashishi yoxud kichrayish, kamayish bilan farqlanadi."Uzlusizlilikni buzilishi tufayli vujudga keladigan kasallik"lar mavjudligiga e’tibor berdi. O‘zining "Donishnama" asarida "Miqdorning ikki xil: birinchisi-“uzlusizlik” arab tilida ifodalanganda "mutassil" Ikkinchisi - uzlukli, arab tilida "munfasil" deb ifodenadi. Borliqdagagi barcha narsa, predmet va jarayonda miqdor va sifat ajralmas, yagonalikda namoyon bo‘ladi. Sifat arab tilida "kayfiya", Miqdor arab tilida "kamiyya"deb izohlanadi. Tabiat borlig‘ida o‘zgarmas ob’ektning o‘zi yo‘q. Ammo barcha tabiat borlig‘i o‘z doirasida o‘zgarib turadi. Me’yor Ibn Sino ta’limotida ko‘p qirrali, sermazmun kategoriyalidir. Ibn Sino asarlarida me’yorning xilma-xil mohiyatlari: "adolatli bo‘lak", "miqdorlar mosligi", "sifatlar mutanosibligi", "to‘rt unsurning o‘zaro bir-biriga hamohangligi (mosligi)" kabi tushunchalarda yoritilgan. Masalan: birinchi me’yor - "adolatli bo‘lak" ("xos adad"); ikkinchi me’yor - qarama-qarshi sifatlar sintezi; uchinchi me’yor - to‘rt va undan ortiq me’yorlar sintezi; Uchinchi me’yor - rejim; to‘rtinchi me’yor taqsimlashdagiadolatli bo‘lak; aniq miqdorlarning biri-biriga munosobati; beshinchisi - yaxshi sifatli (bunda har qanday sifat emas, aynan yaxshi sifat aniq qilib aytganda "yaxshi sifat, a’lo sifat" me’yor modifikatsiyasidan biridir-S.X.)



Alloma ko'pgina insonlar salomatlik tanadagi qonning ko'pligi yoxud ozligiga bog'liq deb hisoblashadi, aslida unday emas, salomatlik qonning sifatiga bog'liqdir deb juda to'g'ri e'tirof etgan. Zamonaviy ibora bilan aytganda salomatlik - qonning immanent me'yoriga bog'liqdir. Klod Bernar Ibn Sino asarida "mizoj" - aniq sifat, tabiiy me'yor ma'nosini anglatadi. "Unsurlar o'z quvvatlari bilan bir-birlariga ta'sir qilishlari natijasida ularning hammasiga mos bir kayfiyat vujudga keladi. Ana shu kayfiyat mizojdir" Gap to'rt xil sifatli unsurlarning bir-biriga mutanosib miqdorlar orqali mosligi haqida borayotganligi anglash unchalik qiyin emas. Qon, safro, savdo va limfa suyuqligi har bir organizm uchun muayyan miqdorda -"xos adad"da bo'ladi;

Xulosa. Xulosa qilib aytganda ibn Sino inson doim salomatlikga erishishi uchun sog'lom tanadagi va kasal organizmdagi farqlarni öz vaqtida anglagan. Salomatlikga erishish uchun bir nechta risolalar va ma'lumotlar yozib qoldirgan Ibn Sino taddiqiy idrokka mukkasidan ketgan va barcha mavjud bilimlarni ensiklopedik darajada egallash ishtiyoqiga ega olim bo'lgan. Faylasuf g'ayritabiyy xotira egasi va o'tkir aql sohibi bo'lgan. Buyuk donishmand Avitsenna o'zi tug'ilgan Buxoroda bo'lgan vaqtidayoq falsafiy risola va she'rlar yoza boshlagan va ijodini g'arbiy Eronda davom ettirgan. U falsafa, sotsiologiya, adabiyotshunoslik, nazm, tabiatshunoslik va tibbiyot taraqqiyotiga ulkan hissa qo'shgan. Ibn Sinoning do'st va hamrohlariga qaraganda dushmanlari ko'proq edi. Sulton Mahmudning g'azabidan qochib, o'zi qayd etganidek "zaruriyat" sabab bir shahardan boshqasiga, bir davlatdan ikkinchisiga ko'chib, sargardonlikda yurishga majbur bo'lgan. U yurishlarda qatnashgan, davlat ishlari bilan shug'ullangan, doimo ijod bilan mashg'ul bo'lgan .

Tafakkur kuchi uning asarlariga Sharqning ilg'or donishmandlari, kitobxonlari tomonidan yuksak baholanadigan «quvnoq erkin fikrlash»ni berdi. Avitsenna Dekartdan olti asr oldin, birinchilardan bo'lib, "Ishorat" asarida "Men fikrlayapman, demak, mavjudman" deb yozgan. Bunday fikrlash tarzi islom qudratiga qarshi turadigan madaniy shakl bo'lib, ibn Sinoning murakkab dunyoqarashidagi rivojlanish an'anasining namoyon bo'lishi edi. U suriya va arabcha tarjimalari orqali o'z davriga yetib kelgan antik falsafa asarlari, faylasuflar otasi Aristotelni o'rganib chiqqan edi. Avitsenna yuksak ta'lim ko'rgan. Butun Yevropa davlatlariga mashhur tibbiyotning rivojlanishiga katta hissa qo'shgan buyuk mutafakkir .

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR .

- 1) Саъдий Шерозий. Гулистон. Шеъриятидан.Т."Узбекистон" 2002.Б.119
- 2) Tib qonunlari 1.
- 3) ABU ALİ İBN SİNO SALOMATLİK SİRLARI ABDULLA QODİRİY NOMİDAGİ XALQ MEROŞİ NASHRİYOTİ
TOSHKENT- 2000
<https://arboblar.uz>.

